

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



**Journal of Preschool  
Education**

*The faculty of pre-school  
education*

#

## WHAT TO CONSIDER WHEN TEACHING ENGLISH IN LARGE GROUPS.

**Hatamova Husniya Zokir qizi.**

**Po'latova Nafisa Bunoyod qizi**

**JDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti.**

**E-mail address: Husniyahatamova0102@gmail.com.**

**Tel nomer.+998915933951**

**Anatatsiya :** Bolalar soni ko'p bo'lgan guruhlarda ingliz tili mashg'ulotlarni o'tish tartibi, hamda bolalarga ingliz tili o'rgatishda guruh hajmi kichik bo'lishi kerakligi, katta va tayyorlov guruhlarda ingliz tilini o'rgatishning ahamiyati haqida fikrlar mazmuni bayon etilgan.

**Kalit so'zlari:** kichik guruhlar, darsning davomiyligi ,kichik, o'rta, katta, tayyorlov, guruhda ingliz tili.

**Anatation:** The procedure for conducting English language classes in groups with a large number of children, the importance of teaching English in large and preparatory groups, and the importance of teaching English to children in the group size should be small.

**Keywords:** small groups, duration of the lesson, English language in small, middle and large preparation groups.

Maktabgacha yoshdag bolalarga ingliz tilini o'rgatishning ahamiyati shundaki bolani maktabga tayyorlash, ingliz tili haqida boshlang'ich bilimlarga ega bo'lishi, ingliz tilidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, va ingliz tilida ko'proq muloqot qilishga o'rgatish va lug'at boyligini oshirishdan iborat Bolalarga maktabgacha talim tashkilotlarida ingliz tili mashg'ulotlarining haftasiga ikki marta tashkil etilishi orqali bolalarni tilga bo'lgan etibori oshmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Albatta biz bilamizki bolaga til o'rgatish oson ish emas hamma narsaning o'ziga yarasha qiyinchiligi bo'lgani kabi bolaga tilni o'rgatish ham tarbiyachidan masuliyatni talab qiladi, tarbiyachi masuliyat bilan yondashishi o'z vazifasini sitqidildan amalga oshirishi , bolaga yaxshi munosabatda bo'lishi , sabir toqat bilan mashg'ulotlarni a'lo darajada tashkil etishi ingliz tili rahbari va tarbiyachining zimmasiga quyilgan talablardan biri desak adashmagan bo'lamiz . Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ingliz tili mashg'ulotlarni o'tishda eng avvalo tarbiyachi va ingliz tili rahbari puhta tayyorgarlik ko'rishi lozim. Statistik malumotlarga qaraganda O'zbekiston Respublikasi jahon mamlakatlari ichida bollarni 100% maktabgacha ta'lim

tashkilotlariga qamrab olish bo'yicha birinchi o'rinni egallagan, bu albatta quvonarli malumotlardir . Mamlakatimiz kelajagi buyuk bo'lishi uchun yoshlarimizga ta'lim tarbiya berishni ilk bolalik yoshlaridan boshlashimiz hamda ularni kelajakda yetuk barkamol shaxs bo'lib yetishish uchun dunyoqarshlarni , tasavvur olamni kengaytirishni va keng doirada fikir yurita oladigan inson bo'lib ulg'ayishida maktabgacha ta'limning o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligini bilishimiz mumkin. Bolalarga ingliz tili mashg'ulotlarni o'tishda nimalarni inobotga olish kerak degan savolga birgalikda javob izlaymiz , demak ingliz tili rahbari mashg'ulot utishdan bir kun avval o'z ustida ishlashi va puxta tayyorlangan bo'lishi, bolalarning yoshi , fiziologi xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulot mavzusiga mos ko'rgazmali qurollardan , zamonavi texnologiyalardan, interfaol metodlardan foydalanish kerak.Mashg'ulotda foydalanadigan ko'rgazmali qurrolar yoki amaliy mashg'ulot bajarishda kerak bo'ladigan jihozlar, o'quv qurollari guruhdagi bollalar soniga yetarli bo'lishini ham inobatga olishi kerak, Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalar soni ko'p bo'lgan guruhlar ham mavjud bu guruhlarda ingliz tili mashg'ulotlarni kichik kichik guruhlarga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi buning natijasida bolalar o'rtasida o'zaro raqobat, qilish tushunchasi hamda intilish, chaqqonlik , tezkorlik kabi jismoniy sifatlar ham birgalikda rivojlanib boradi . Psixolog olimlarimiz tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki ingliz tili mashg'ulotlarini guruhdagi bolalar soni 15 ga yaqin bo'lsa ham bolalarga tilni o'rgatish samarasiz hisoblanadi degan sababi har bir bola bilan ingliz tili rahbari alohida savol javob qilishi, va amaliy,ijodiy, didaktik, harakatli o'yinlarda barcha bolalar birdek qatnashish kerakligini inobatga olishi kerak . Guruhda bolalar soni 10 tadan oshmasa ingliz tili rahbari ham bemalol barcha bolalar bilan alohida ishlashi uchun yetarli hisoblanadi . Ingliz tili mashg'ulotlarining davomiyligi barcha yosh bosqichlarida turlicha olib boriladi masalan besh yoshli bolalarga 20 daqiqa , olti yoshli bolalarga esa 25 daqiqadan oshmasligi lozim. Katta va tayyorlov guruh bolalariga ingliz tili mashg'ulotlarni o'tishda ijodiy o'yinlardan hamda harakatli didaktik o'yinlardan keng tarzida foydalanish lozim sababi katta va tayyorlov guruh bolalari kichik va o'rta guruh bolalariga nisbatan ancha harakatchan bo'lishi ,lug'at boyligining ko'pligi bilan farqlanib turadi. Masalan katta va tayyorlov guruh bolalariga ingliz tilini o'rgatishda o'yinning turlarida juda keng foydalanamiz. Olimlarimiz takidlaydiki o'yin bolaning muayyan ko'nikmalarni shakillantiradi , nutqidagi kamchiliklarni tog'irlashda ,kishilar o'rtasida muloqot ko'nikmalarni shakillantirishda va bolaning xotirasi, diqqati, tasavvur qilish jarayonlarni yetakchi omil bo'lib hizmat qiladi. Bu esa ingliz tili rahbari bolaga ingliz tilini o'rgatishda o'yin metodidan keng foydaslanish kerakligiga undaydi.Bolalar soni ko'p bo'lgan guruhlarda ingliz tili rahbari va tarbiyachi birgalikda mashg'ulotni tashkil etishi kerak , bu ham bolalar tilni tez va oson o'rganishlariga yordam beradi .Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning vaqtlarni samarali tashkil etish tarbiyachining eng asosiy vazifalaridan

biri sanaladi . Bolalarning tilga bo'lgan qiziqishlarni oshirish orqali boshqa davlatlarning ta'lim tizimi, madaniyati, o'rganishga yordam beradi . Davlatlarimiz o'rtasidagi aloqalarni yaxshilanishiga olib keladi . Rus pedagog olimlari K. D. Ushinskiy shunday yozadi “ Bola biz bir necha yil o'rgana olmaydigan darajada chet tilini bir necha oyda o'rganadi”maktabgacha ta'lim yoshdagi bollarga chet tilini oson o'rganishga yosrdam beradigan metodlardan biri bu multifilimlar tomosha qildirishdir. Bu bolalarning fikirlash doirasini kengaytiradi va ingliz tilidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishlariga yordam beradi, chunki multfilmlarda murakkab bo'lgan grammatik so'zlar mavjud emas

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yili 30 – sentabrdagi “ Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi PQ – 3955- sonly qaroi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 – maydagi “ O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida”gi qarori PQ- 4312- sonly qarori.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ingliz tilini o'rgatish usullai .Majmua .
4. M. Berdiyeva, S. Bo'ronova Maktabgacha va boshlang'ich talimda ingliz tili mashg'ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikirlash qobiliyatini shakillantirishning samarali usullari.